



Использованная литература:

1. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – М., 2019.
2. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – К., 2018.
3. Озолин Н.Г. Теория и практика спортивной тренировки. – М., 2017.
4. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. – М., 2016.
5. Жуков В.А. Лёгкая атлетика: теория и методика. – М., 2020.
6. Бомпа Т. Периодизация спортивной тренировки. – М., 2018.
7. Иссурин В.Б. Подготовка спортсменов высокого класса. – М., 2019.
8. Волков Л.В. Теория и методика юношеского спорта. – К., 2017.
9. Годик М.А. Контроль тренировочной деятельности. – М., 2016.
10. Платонов В.Н. Адаптация в спорте. – К., 2019.
11. Кузнецов В.В. Лёгкая атлетика в системе физического воспитания. – М., 2018.
12. Селуянов В.Н. Физиология спорта. – М., 2017.
13. Шустин Б.Н. Подготовка юных спортсменов. – М., 2016.
14. Бальсевич В.К. Онтокинезиология человека. – М., 2018.
15. Назаренко Л.Д. Физическое воспитание подростков. – М., 2019.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Nurishov Darmenbay Esnazarovich

Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

darmen.nurishov277@gmail.com

Аннотация: *Мазкур мақоллада yuqori sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy asoslari jismoniy tarbiya darslari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ekologik tarbiya hamda jismoniy madaniyatning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, ularning sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishdagi o‘rni, shuningdek milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ekologik madaniyat rivojiga ta‘siri yoritib beriladi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida jismoniy tarbiya darslari yuqori sinf o‘quvchilarida ekologik ong, mas‘uliyat va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Калит so‘zlar: *Ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy-tarixiy omillar, yuqori sinf o‘quvchilari.*

Аннотация: *В данной статье анализируются социально-исторические основы формирования и развития экологической культуры у учащихся*



старших классов на примере уроков физической культуры. В ходе исследования раскрывается взаимосвязь экологического воспитания и физической культуры, их роль в формировании здорового образа жизни, а также влияние национальных и общечеловеческих ценностей на развитие экологической культуры. По результатам проведённого анализа обосновано, что уроки физической культуры являются эффективным педагогическим средством формирования и развития экологического сознания, ответственности и культуры у учащихся старших классов.

Ключевые слова: *Экологическая культура, экологическое воспитание, физическая культура, здоровый образ жизни, социально-исторические факторы, учащиеся старших классов.*

Abstract: *This article analyzes the socio-historical foundations of the formation and development of environmental culture among high school students using physical education classes as an example. The study reveals the close relationship between environmental education and physical culture, their role in promoting a healthy lifestyle, as well as the influence of national and universal values on the development of environmental culture. The results of the analysis substantiate that physical education classes serve as an effective pedagogical tool for developing environmental awareness, responsibility, and culture among high school students.*

Keywords: *Environmental culture, environmental education, physical education, healthy lifestyle, socio-historical factors, senior school students.*

Kirish: Bugungi globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Inson faoliyatining jadallashuvi natijasida tabiatga ko'rsatilayotgan salbiy ta'sirlar, texnogen omillarning kuchayishi, ekologik muvozanatning buzilishi va iqlim o'zgarishlari yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish zaruratini keskin oshirmoqda. Shu bois ekologik tarbiya bugungi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ekologik tarbiya ijtimoiy va umuminsoniy tarbiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning asosiy obyekti inson va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlardir. N.V.Lazarev ekologik tarbiyaning asosiy xususiyati uning keng ko'lamliligi va umumbashariy xarakterga egaligida ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni ekologik muammolar muayyan hudud yoki davlat doirasida emas, balki butun insoniyat miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan masalalardir. Shu nuqtayi nazardan ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda ta'lim tizimi, xususan umumta'lim maktablari muhim o'rin tutadi.

Yuqori sinf o'quvchilari dunyo qarashi, ijtimoiy faolligi va qadriyatlar tizimi shakllanib borayotgan muhim yosh davrini boshdan kechiradi. Aynan shu davrda ekologik madaniyatni rivojlantirish kelgusida jamiyat va tabiat oldida mas'uliyatni



his etadigan shaxsni tarbiyalash imkonini beradi. Ushbu jarayonda jismoniy tarbiya darslari katta pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lib, ekologik tarbiyani amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Ekologik madaniyat insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida shakllanib kelgan bo'lib, u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va tarixiy rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Dastlabki jamiyatlarda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar nisbatan muvozanatda bo'lgan bo'lsa, sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari ushbu muvozanatning izdan chiqishiga olib keldi. Natijada suv va havoning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi, tuproq eroziyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi ekologik muammolar yuzaga keldi.

Hozirgi davrda ekologik xavfsizlik masalasi global xarakter kasb etib, u ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, aholi salomatligi va kelajak avlod taqdiri bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli ekologik madaniyatni shakllantirish faqat ekologik bilimlar berish bilangina cheklanmay, balki ekologik ong, ekologik mas'uliyat va ekologik xulq-atvorni rivojlantirishni ham o'z ichiga olishi zarur. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, ayniqsa umumta'lim maktablari yetakchi subyekt hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishiga, balki ularning ekologik madaniyatini shakllantirishga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlar, sport o'yinlari va sog'lomlashtiruvchi mashqlar o'quvchilarning tabiat bilan bevosita muloqotda bo'lishiga imkon yaratadi. Bu esa ularda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat, sog'lom turmush tarziga rioya qilish va ekologik mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantiradi.

Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqotda yuqori sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya darslari jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish masalasini o'rganishda nazariy va empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini ekologik tarbiya, jismoniy madaniyat va sog'lom turmush tarziga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish tashkil etdi. Empirik bosqichda pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma hamda pedagogik tajriba-sinov usullari orqali o'quvchilarning ekologik ong, mas'uliyat va xulq-atvor darajalari aniqlanib baholandi. Olingan natijalar matematik-statistik tahlil asosida qayta ishlanib, jadval va diagrammalar yordamida umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalari. Qoraqalpog'iston Respublikasining bir qator umumta'lim maktablarida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yuqori sinf o'quvchilarining aksariyati ekologik madaniyatni tabiatga muhabbat, atrof-muhitni asrash va tabiatni muhofaza qilishga tayyorlik tushunchalari bilan bog'lab tushunadilar. Bu holat jismoniy tarbiya darslarining ekologik tarbiyadagi salohiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.



1-jadval

Yuqori sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyat tarkibiy qismlarining shakllanganlik darajasi

Ko‘rsatkichlar	Yuqori daraja(%)	O‘rta daraja (%)	Past daraja (%)
Tabiatga muhabbat	46,8	38,2	15,0
Atrof-muhitni asrash mas’uliyati	38,0	42,5	19,5
Ekologik bilimlar	29,9	54,0	16,1
Ekologik xulq-atvor	33,4	47,8	18,8

1-jadval. Yuqori sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyat tushunchasiga munosabati

Jadvalda yuqori sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyatni anglash darajasi foizlar asosida aks ettirilgan bo‘lib, unda “tabiatga muhabbat”, “atrof-muhitni asrash”, “tabiatni muhofaza qilishga tayyorlik” va “sog‘lom turmush tarzi” ko‘rsatkichlari ustunlik qilayotgani ko‘rsatilgan. Diagramma natijalari ekologik madaniyatning o‘quvchilar ongida ijobiy shakllanib borayotganini tasdiqlaydi. Jismoniy madaniyat bo‘yicha kompleks o‘quv dasturimizda jismoniy tarbiya darslarida ekologik madaniyatni rivojlantirish muammosida yuqori sinf o‘quvchilarini tabiat manzaralarida turizm va ekologik bilimlarni shakllantirish bo‘yicha bir qancha ishlarni ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikda amalga oshirish, ammo tarbiyaviy vazifalarni samarali yechish faqat oila va maktab hamkorligi sharoitida mumkinligi keng yoritib berilgan.

2-jadval

Jismoniy madaniyat bo‘yicha kompleks o‘quv dasturi

№	Dastur bo‘limlari	Bo‘limlar mazmuni
1.	Tashkiliy bo‘lim	Umumta’limning asosiy ta’lim dasturini o‘zlashtirishning shaxsiy natijalarida quyidagilar aks ettirilishi kerak: - kattalar va tengdoshlarning hayotiy vaziyatlarda hamkorlikdagi harakat qobiliyatlarini, konfliktlardan qochish uquvlarini o‘zlashtirishlari va bahsli vaziyatlardan chiqishlarni topish; - ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga g‘amxo‘r munosabat; - maqsad qo‘yish qobiliyati va ularga erishish metodlarini topish; - shaxsiy xulqini va atrofdagilarning o‘zini tutishlarini adekvat baholash.
2.	Bolalar bilan ta’limiy ishlar tizimi	Jismoniy tarbiya bo‘yicha asosiy ta’lim dasturini o‘zlashtirish samarasi quyidagi konkret yutuqlar hisoblanadi: - hayotiy muhim o‘quv va ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish; - jismoniy tarbiya va sport sohasida zaruriy bilimlarni shakllantirish: - jismoniy mashg‘ulotlarni bajarish sharoitlari va qoidalar; - jismoniy mashg‘ulotlarning organizmdagi asosiy tizimlarga ta’siri; - harakat qobiliyatlarini mustaqil chiniqtirish qoidalari; - jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish paytida o‘zini o‘zi nazorat qilishning asosiy usullari



3.	Ota-onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan o‘zaro munosabatlar shakllari	Ota-onalarni tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga, ijtimoiy muhim hamkorlik pedagogik faoliyatga jalb qilish muntazam va tizimli bo‘lishi, ketma-ketlik va kompleks xarakterga ega bo‘lishi, amaldagi normativ huquqiy bazaga asoslanishi kerak. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida ota-onalar va ularni almashtiruvchi shaxslar bilan hamkorlik ishlari va ijtimoiy sheriklikning tajribasi ancha to‘plangan, o‘quv va tarbiya faoliyatini tashkil qilishda oila ishtirokini kengaytirish uchun sharoitlar yaratilgan, chunki oila – bosh ijtimoiy institut va bolalarning har tomonlama jismoniy rivojlanishi, tarbiyalanishi uchun tabiiy muhit hisoblanadi.
4.	Dasturni amalga oshirish shartlari	- jismoniy faoliyat haqidagi o‘rganuvchilar bilimlarini, o‘z salomatligiga g‘amxo‘r munosabatni shakllantirish; - jismoniy tayyorligini mustahkamlash, jismoniy va psixik sifatlarini bir butun rivojlantirish; - jismoniy madaniyat vositalarini sog‘lom turmush tarzini tashkil qilishda ijodiy qo‘llash.
5.	Umumta’lim tashkilotlari ta’lim muhitining xususiyatlari	Maktab yoshidagi o‘quvchilarning jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga, sog‘lom turmush tarziga, salomatlikka mas’uliyatli munosabatni tayyorlashda ijobiy motivatsiyani shakllantirish, avvalo, oila va maktabning to‘g‘ri tashkil qilingan hamkorligiga, ularning tarbiyaviy potensialini faollashtirishga va ota-onalar, yuqori sinf o‘quvchilarining maqsadli tashkil qilingan hamkorlik ishlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘rta ta’lim asosiy ta’lim dasturini o‘zlashtirishning shaxsiy natijalarida quyidagilar aks ettirilishi kerak: kattalar va tengdoshlarning hayotiy vaziyatlarda hamkorlikdagi harakat qobiliyatlarini, konfliktlardan qochish uquvlarini o‘zlashtirishlari va bahsli vaziyatlardan chiqishlarni topish; ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga g‘amxo‘r munosabat; maqsad qo‘yish qobiliyati va ularga erishish metodlarini topish; shaxsiy xulqini va atrofdagilarning o‘zini tutishlarini adekvat baholash

Izoh: Darsdan tashqari mashg‘ulotda yo‘lga qo‘yilayotgan ta’lim-tarbiya ishlari muayyan jamoa faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Yuqori sinf o‘quvchilarning birgalikdagi ishlari, mehnat faoliyati, tengdoshlar bilan muloqot ular o‘rtasidagi o‘rtoqlik, o‘zaro yordam sifatlarini tarbiyalaydi. Ekologik bilimlarni ushbu muhitda targ‘ib etish esa ularning atrof-muhit va inson salomatligini muhofazalash yo‘lida birgalikda kurashish tuyg‘usini qaror toptiradi.

Oila – bu bola uchun ilk mikrojamoa, u juda muhim tarbiyaviy-ijtimoiy rolni bajaradi. Vatanimiz ta’lim tizimini isloh qilish sharoitida, barcha darajalarda oila va maktab hamkorligi muammosi dolzarbdir. Ota-ona va pedagoglar – har bir insonning shaxsiy shakllanish jarayonida ikkita qudratli kuch bo‘lib, uning rolini hech qachon bo‘rttirib bo‘lmaydi. O‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va o‘qitishda avvalo o‘zaro tushunishga asoslangan hamkorlik dolzarb ahamiyat kasb qiladi. Maktab va oilaning pedagogik hamkorligini faollashtirish deyilganda biz quyidagilarni ta’minlovchi jarayonga kiritamiz:



1) Jismoniy tarbiyaning umumiy masalalari va vazifalarini rivojlantiruvchi faoliyat integratsiyasi va sog‘lom turmush tarzi qadriyatlarini pedagoglar, ota-onalar va bolalarda shakllantirish asosida pedagogik pozitsiyasini ishlab chiqish va manfaatlarini birlashtirish;

2) Jismoniy tarbiya amaliyotida nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni ijodiy jalb qilish, prinsipial yangi jismoniy tarbiya shakllari, metodlari va vositalarini ishlab chiqishda motivatsion muhtojlikni ishlab chiqish;

3) Pedagoglar va ota-onalarning bolalarda jismoniy tarbiya jarayonini ongli va muvofiq tartiblashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish, tarbiya jarayoniga pedagogik refleksiya asosida o‘z vaqtida korreksiya kiritish.

Biz tadqiqotimizda maktab va oila pedagogik hamkorligi darajasi ko‘rsatkichlarini aniqlashda, pedagogik faoliyatda o‘qituvchilar va ota-onalar hamkorligini nazarda tutadigan tadqiqotchilar nuqtai nazarini quvvatlaymiz: birinchidan, pedagoglar va ota-onalarda o‘quvchilarning o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, mustaqil ta‘limi uchun stimullash va sharoitlar yaratish bo‘yicha xususiy pedagogik pozitsiyasini ishlab chiqish san‘ati sifatida tarafdor bo‘lamiz. E.G.Garunov ushbu pozitsiyani shunday aniqlaydi “o‘z dunyoqarashi, tamoyillari va bolalik–katta yosh fazasidagi xulqining uyg‘unligini aniqlovchi katta yoshdagi insonning xulqida bir butun xarakteristika bo‘ladi”. Pedagogik pozitsiya shunday xususiyatga ega, u pedagogning kattalarning bola bilan uchrashuvida nazarga tushadigan shaxsiy pozitsiyasini hamda ta‘lim maqsadiga erishish uchun sharoit yaratish bilan bog‘liq professional faoliyat pozitsiyasini va ularning xususiy pedagogik funksiyalarini pedagogning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, ilmiy, estetik va boshqa e‘tiqodlari bilan aniqlangan holda xarakterlovchi ko‘ra olishlari bilan sintezlaydi. Pedagoglar va ota-onalar shaxsiy pozitsiyasida bo‘lgan holda tarbiyalanuvchilar bilan xususiy noyob subyektiv tajribasiga ega o‘zga inson sifatida hamkorlikda bo‘ladi. O‘qituvchilar va ota-onalar tegishli pedagogik pozitsiyaga ega bo‘lgani holda bolaga uning individuallining barcha jihatlarini maksimal ochib berishiga yo‘naltiradi (jismoniy madaniyat muhitini tashkil qilish, maqbul sport-sog‘lomlashtirish faoliyati va h.). U tarbiya maqsadlarini va ta‘lim qadriyatlarini, jumladan jismoniy jihatdan ham amalga oshirishini ta‘minlaydi. Tadqiqotimiz kontekstida ota-onalar jismoniy tarbiyaning ijtimoiy-qadriyat mohiyatini aniqlashga intilishi bilan, tarbiya hodisalari va jarayonlari orasidagi aloqani bilishga intilishi bilan, ijtimoiy-madaniy sharoitlardagi o‘zgarishlar borasidagi bilimlarni tushunishi, eslab qolishi va qo‘llash usullarini egallab olishi bilan, bolalarni namuna asosida jismoniy tarbiyalash bo‘yicha bilimlarni qayta tiklash bilan xarakterlanadi. Ushbu daraja erk kuchlarining qisman noturg‘unligi bilan, ota-onalarning bilimlarni chuqurlashtirishga manfaatdorligining yo‘qligi va hakoza bilan ajralib turadi.

O‘ziga xos xususiyati – ota-onalar bolaning belgilangan maqsadiga erishishida erk va jismoniy sifatlarning shakllanishida qat‘iylik va turg‘unligiga, qadriyatlar va e‘tiqod mustahkamligiga yuqori manfaatdorlikni bildirishadi. Biz shunga bog‘liq



holda dastlabki ko'rsatkichlar sifatida pozitsiyalilikni ajratamiz, u esa biz tomondan o'qituvchilarning, tarbiyachilarning o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash bo'yicha umumiy faoliyatida o'zgartirish kiritishga tayyorligi va qobiliyati, yaratilgan faoliyatning tashqi sharoitlar va vaziyatlar bilan o'zaro aloqasi asosida yangi tarbiya amaliyotining ham ijodkorlari va tashkilotchilari bo'lgani holda tushuniladi. O'quv hamkorligining yuqori pedagogik samarasi shunga bog'liq, ta'lim-tarbiya jarayoni natijaviyligi va unumdorligining ancha yuqori darajasi, sinf va oilada do'stona, insoniylik vaziyatni shakllantirish, o'quvchilarning o'zini baholashi va kommunikatsion kompetentligini orttirish va oxir-oqibatda, o'quvchilarning jismoniy va psixik salomatligini saqlashni ta'minlaydi. Ikkinchidan, pedagogik ijodkorlikning etuk aspekti sifatida, motivatsionlik bilan jips bog'langan, yoki pedagogik hamkorlikning o'ziga xosligi shundaki, pedagog o'z professional faoliyatida avvalo ota-onalar bilan hamkorlikka, bola tarbiyasidagi etik dialog va o'zaro tushunishga tayanadi. Pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi shundan iboratki, unda harakat motivatsiyasi, etikasi va usullari orasidagi aloqalar ancha aniq ko'zga tashlanadi. Hozirgi zamonda dinamik rivojlanuvchi maktabda, psixologik-pedagogik bilimlarni chuqur egallagan, o'z bolalarining rivojlanish xususiyatlarini tushunadigan, jismonan salomat, bolalarining sog'lom turmush tarzining shakllanishiga manfaatdor bo'lgan yangi ijodkor o'qituvchilar va kreativ fikrlovchi ota-onalarni talab qiladi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlashda tadqiqotchi A.N.Xousova pedagogik faoliyatning “ijodkorligini” ta'kidlagan holda faoliyatning ijodiy strukturasi stilini yaratuvchi va motivatsion kichik strukturasi ajratadi. U o'qituvchi faoliyati ijodiy stilining tizim yaratuvchi xususiyatlariga quyidagi sifatlarni kiritadi: muammolarni ajrata olish qobiliyati, muhokama qilishning mustaqilligi, o'ylashning o'ziga xosligi, assotsiatsiyasining yengilligi, fikrlashning g'oyalar generatsiyasining yengilligi, fikrlashning tanqidiyligi, bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarga olib o'tish qobiliyati. A.N.Xousova faoliyatning ijodiy stili xususiy korrelyant sifatida, shaxsning emotsional - erk sohasi xususiyatlari: ijodiy kuchni jamlash qobiliyati, qat'iyatlilik, maqbul tavakkalga moyillik, muhokamalardagi dadilligi va mustaqilligi, optimizm, o'zini baholashning yuqori darajasi, yangini joriy qilishga intilishi va muhtojligi va hokozalarni faoliyatning ijodiy stili korrelyantlari deb hisoblandi. Uchinchidan, bolalarni jismoniy tarbiyalashda hamkorlikdagi yutuqlarga yo'naltirish, pedagoglar va ota-onalarda o'zlarining tarbiyaviy vazifalarini fikrlash va tushunishning mavjud bo'lishi, shaxsning maktab va oilada pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilar refleksiyasini tashkil qilish asosida jismoniy rivojlanishiga yo'naltirish, uning o'z faoliyati jarayonida o'zini nazorat qilish va o'zini baholash hamda natijasini amalga oshirish orqali ularga erishish rejalarini ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lishi. U ham pedagog ham ota-onalar mehnati eng yuqori samarasini, birinchi galda, maktab va oilada tarbiya ishida pedagogik ko'rsatma standartlar va stereotiplarni yengib o'tishga intilishni ta'minlaydi. Refleksiya pedagoglar, ota-onalarga kutiladigan



tarbiya natijalarini shakllantirish, jismoniy tarbiya bo'yicha kelgusi ishi maqsadini oldindan aniqlash, o'quvchilarga esa shaxsiy rivojlanishining o'z yo'lini korreksiyalashda yordam beradi. Olim A.V.Xutorskoy fikrini keltirish o'rinsiz bo'lmaydi: “Agar inson uchun jismoniy sezish organlari uning tashqi tarjibasining manbasi bo'lsa, u holda refleksiya – ichki tajriba manbasi, o'zini o'zi tushunish usuli va fikrlashning zarur asbobidir”. Shunday fikrni tadqiqotchi K.B.Muhammadiyev ham aytadi, u innovatsiyalar pedagog subyekting shakllanishiga bevosita bog'liq, chunki “o'qituvchi shaxsi va uning dunyoqarashi ko'rsatmasi ta'limning bevosita mazmuni bo'ladi” va bunda har qanday pedagogik innovatsiyalarning o'zlashtirilishi uchun uchta majburiy sharoitlar ajratiladi va ular: tushunish, refleksiya va shaxsiy tayyorligi. Xususiy faoliyat muammoliligi, uni o'zgartirish (tushunish) maqsadi va uni o'zgartirish qobiliyati bilan xususiy, ijtimoiy, kommunikativ, iqtisodiy va boshqa ko'rsatmalarni oldindan anglagan holda qo'zg'atish (refleksiya) – bu “o'zga pedagogik reallikni anglash” uchun majburiy sharoit hisoblanadi. Shu aytilganlardan kelib chiqib, biz maktab va oila pedagogik hamkorligining bolalarni jismoniy tarbiyalashdagi faolligining quyidagi ko'rsatkichlarini ajratamiz: pozitsiyalilik, kreativlilik va refleksivlilik. Birinchi komponent – pozitsiyalilik biz tomonimizdan o'qituvchilar va ota-onalarning o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash bo'yicha o'zining yagona faoliyatini yangi tarbiya amaliyotining tashqi sharoitlar va vaziyatlar asosida ham ijodkorlari va ham tashkil qiluvchilari bo'la turib hamda yangiliklarni o'zlashtirgan holda o'zgartirishga tayyorligi va qobiliyati sifatida tushuniladi. Pedagogik hamkorlik faoliyati subyektlari (pedagoglar va ota-onalar) predmeti ushbu tarbiya modelida professional pedagogik kompetentlilik darajasidan va o'quvchilar jismoniy tarbiyasida umumiy harakat usullarini o'zlashtirish uchun uning doirasidan tashqariga chiqishdan iborat.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yuqori sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish masalasi bugungi globallashuv va ekologik muammolar kuchayib borayotgan sharoitda alohida dolzarflik kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning nafaqat jismoniy salomatligini mustahkamlash, balki ularning ekologik ongini, ekologik mas'uliyatini va tabiatga ongli munosabatini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Maqolada ekologik madaniyatning ijtimoiy-tarixiy shakllanish jarayoni tahlil qilinib, uning jamiyat taraqqiyoti, sog'lom turmush tarzi va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi asoslab berildi. Ochiq havoda tashkil etiladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, sport-sog'lomlashtirish faoliyati va turizm elementlarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarda tabiatni asrashga bo'lgan ehtiyoj va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida maktab va oila pedagogik hamkorligining ekologik madaniyatni shakllantirishdagi roli muhim omil sifatida belgilandi. O'qituvchilar va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati, pozitsiyalilik,



kreativlilik va reflektivlilikka asoslangan pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning jismoniy va ekologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlandi. Umuman olganda, yuqori sinf jismoniy tarbiya darslarida ekologik madaniyatni rivojlantirish ijtimoiy-tarixiy jihatdan asoslangan, pedagogik jihatdan samarali va amaliy ahamiyatga ega jarayon ekanligi aniqlandi. Shu bois jismoniy tarbiya ta’limi mazmunini ekologik tarbiya bilan uyg‘unlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktab–oila–jamiyat hamkorligini kuchaytirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni.
3. Kuchkinov A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ekologik tarbiyalash texnologiyalari. Chirchiq, 2021.
4. Isakulova N. Ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat. Наука и инновации, 2024.
5. Nurishov D.E. Yuqori sinf jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Dissertatsiya, 2025.
6. Abdullayev O., Qodirov A. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
7. Лихачёв Д.С. Экология культуры. – Санкт-Петербург: Наука, 2017.
8. Гарунов Е.Г. Педагогическая позиция учителя в образовательном процессе. – Москва: Просвещение, 2016.
9. Захлебный А.Н., Дзятковская Е.Н. Экологическое образование школьников. – Москва: Просвещение, 2018.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA AXLOQIY ONG VA IJOBIY XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Utebaev Nawrizbek Marat uli

Assistant o‘qituvchi

Innovatsion texnologiyalar universiteti

utebaevnawrizbek@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy ong va ijobiy xulq-atvorni shakllantirish omillari tahlil qilinadi. Tadqiqot nazariy va empirik metodlar asosida olib borilgan bo‘lib, pedagogik kuzatish, suhbat va so‘rovnomalar orqali axloqiy tarbiyani shakllantirishda pedagogik va ijtimoiy omillar aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi namunaligi, oilaviy tarbiya va maktab*